

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**«RO'YXATGA OLINDI»**

№ BM-343-3400-3.07  
«09» \_\_ 06 \_\_ 2003 y.

**«TASDIQLANDI»**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligi  
S.Tulyaiov  
«1» iyul 2003 y.**

**«MAKROIQTISODIYO'T»**

**fanidan**

**DASTUR**

**340000 - "Biznes va boshqaruv" ta'lim sohasidagi barcha bakalavriat yo'nalishlari  
uchun**

**Toshkent - 2003**

**Tuzuvchilar:** i.f.n., dots. S.Nasritdinova,

k. o'q. B. Maxmudov,

k. o'q. X.Xodjaev.

**Taqrizchilar:** i.f.d., prof. A.Ishmuhammedov,

prof. M. Hamraev

Dastur zamonaviy Makroiqtisodiyot fanining eng asosiy mavzularini o'z ichiga olgan bo'lib, «Biznes va boshqaruv» ta'lim sohasi bo'yicha tayyorlanadigan bakalavrlarga mo'jallab tuzilgan. Unda ma'ruza, amaliy (seminar) mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim mavzulari va o'rganiladigan savollar o'z aksini topgan. Dasturda fanni o'rganishga oid asosiy va qo'shimcha adabiyotlar, iqtisodiy gazeta va jurnallar ro'yxati berilgan. Shu jumladan, ingliz tilida chop etilgan adabiyotlar ham tavsiya qilingan. Kompyuter o'quv dasturlari, internet tarmog'i saytlari ro'yxati ilova qilingan.

Программа включает в себя наиболее важные темы курса современной макроэкономики и разработана с учетом всех направлений бакалавриата по сфере «Бизнес и управление». В ней находит свое отражение темы лекционных, практических, семинарских занятий и самостоятельного образования, а также их изучаемые вопросы. В программе приводится перечень основной и дополнительной литературы, экономических газет и журналов в том числе необходимая для изучения курса литература на английском языке. В качестве приложения приводится перечень компьютерных учебных программ, веб - сайтов сети Интернет, электронных учебных материалов и электронных учебников.

Program includes the most important subjects of the mordent macroeconomic considering all special ties end directions of baccalaureate in sphere of "Business and Management ". lecture themes, practical studies, seminars and self – educated questions are observed in it.

Program consist of list of main and additional literature, economic news – papers and margarines, including also necessary English literature. As an appendices presented list of computer educational programs, internet web – sites and electronic training aids.

## 1. SO'Z BOSHI

Fanni o'qitishning maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi "Makroiqtisodiyot" fanini o'qitishning maqsadi "Biznes va boshqaruv" sohasi bo'yicha bakalavriat yo'nalishlarda ta'lim oluvchi talabalarda mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil etish va uni dinamikasini qiyosiy taqqoslash hamda davlatning makroiqtisodiy siyosati va strategiyasini to'g'ri asoslay olish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

### **Fanni o'rgatish vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:**

- - talabalarga milliy hisoblar tizimi (MHT) asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash usullaridan va makroiqtisodiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi grafiklarni tuzishni o'rgatish;
- - talabalar bilan birgalikda yalpi talab va yalpi taklif, iste'mol va jamg'arish funktsiyalari, davlat xarajatlari va soliq multiplikatorlari o'zaro harakatining algebraik formulalarini o'rganish;
- - talabalarga makroiqtisodiy muvozanat va uning modellari haqida to'liq ma'lumot berish hamda iqtisodiy o'sish va aholi farovonligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, daromadlarning tabaqalashuvi omillarini va davlatning ijtimoiy siyosati yo'nalishlarini tushuntirish.

"Makroiqtisodiyot" hozirgi zamon iqtisodiy nazariyasining tarkibiy qismi sifatida "Iqtisodiy nazariya" fani bilan uzviy bog'liq, shuningdek, "Mikroiqtisodiyot", "Statistika", "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Moliya", "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish", "Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar", "Soliqlar va soliqqa tortish", "Iqtisodiy matematik modellar", kabi o'quv fanlari bilan ham yaqin aloqadadir.

### **O'quv fani bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va mahoratlariga talablar**

Oliy ta'limning davlat standartiga muvofiq mazkur fan bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- - fanni o'rganish jarayonida o'tiladigan har bir mavzu bo'yicha reyting ballarini to'plashlari, test savollariga javob bera olishlari;
- - o'quv grafigining reyting haftaligida joriy va oraliq baholash yozma baholash ishlarini bajarishlari, mustaqil ta'lim mavzularini o'zlashtirishlari, amaliy mashg'ulotlarda masalalar echishlari, mustaqil

ishlar sifatida referatlar tayyorlashlari, test savollari tuzishlari, chizmalar va jadvallar chizishlari;

- - fanni o'zlashtirish natijasida makroiqtisodiy tahlil usullarini mukammal bilishlari va ularni amaliyotda tadbiq eta olishlari, hamda masofaviy o'qitishda «keys - stadis» lardan, elektron darsliklardan foydalanishlari, internet tarmog'i orqali fanga oid tegishli ma'lumotlarni o'qib bilishlari talab qilinadi.

### **Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlarning minimal miqdoriga talablar**

Ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha talabalar tegishli mavzular bo'yicha amaliy masalalar echadi, konspektlar oladi, referatlar va mustaqil ishlar tayyorlaydi hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan nazorat ishlar yozadi va oqzaki suhbatdan o'tadi. Ushbu talablar amaliy mashg'ulotlar mavzularida kursiv bilan ko'rsatilgan savollar bo'yicha talabalarning to'liq o'zlashtirishlarini belgilaydi.

### **Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi (foizlarda) bo'yicha tavsiyalar**

O'quv rejasida ushbu fanga 108 soat ajratilgan, shundan 72 soati auditoriyada bajariladi, jumladan 36 soat ma'ruza va 36 soat amaliy (seminar) mashg'ulotlar; 36 soat mustaqil ta'limga ajratilgan bo'lib, auditoriyadan tashqarida bajariladi, ya'ni auditoriya soatlari 66,7 % va auditoriyadan tashqaridagi soatlar 33,3 %ni tashkil etadi.

### **Talabalar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori**

Ushbu fan bo'yicha talabalar bilimni baholash o'quv reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy ballar asosida belgilanadi.

Fanni o'qitishning har bir semestrda ikki marotaba joriy nazorat (seminar mashg'ulotlarida), ikki marotaba oraliq nazorat (ma'ruza mashg'ulotlarida) va bir marotaba yakuniy nazorat (yozma ish usulida) amalga oshiriladi. Agar fan bir necha semestr o'qitilishi ko'zda tutilsa, oldingi semestrlar nihoyasida yakuniy nazorat oqzaki yoki test usulida amalga oshirilishi mumkin, yakunlovchi semestrda esa yakuniy nazorat faqat yozma ish usulida amalga oshiriladi.

### **Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarni qo'llash**

Fanni o'qitishda yangi texnologiyalar elementlari bo'lib masofaviy o'qitish, internet tarmog'idan foydalanish, kompyuter sinflarida amaliy mashg'ulotlarni «ish o'yinlari» shaklida o'tkazish hisoblanadi.

### **Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar**

Ushbu tasdiqlangan Dasturga muvofiq har yangi o'quv yilida fanning Ishchi dasturi ishlab chiqiladi va unda qonunchilikdagi, o'qitish uslubiyati va baholashidagi o'zgarishlar, joriy etilgan yangi pedagogik texnologiyalar hisobga olinib, har bir mavzuga kerakli tuzatishlar kiritiladi. Undan tashqari ishchi dasturda nazariy va amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim rejalari to'liq aks ettiriladi, mavzularni mashg'ulot turlari bo'yicha soatlarda taqsimlanish jadvali, oraliq va joriy baholash reyting ballari jadvali hamda yangi adabiyotlar va elektron saytlar ro'yxati beriladi.

## **2. FAN DASTURI**

### **«Makroiqtisodiyot» tushunchasi**

Makroiqtisodiyot fanining predmeti va ob'ekti; makro va mikroiqtisodiyot tushunchasi; makroiqtisodiy tahlil usullari: agregatlashtirish, modellashtirish; ekzogen (tashqi) va endogen o'zgaruvchilar; makroiqtisodiy zahiralalar va oqimlar; makroiqtisodiy sub'ektlar va ularning o'zaro bog'liqligi; makroiqtisodiy nazariyalar va makroiqtisodiy siyosat; iqtisodiy tizimlar; resurslar, tovarlar va daromadlarning doiraviy aylanishi.

Milliy hisoblar tizimida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash.

Milliy hisoblar tizimi (MHT). Mamlakat makroiqtisodiy holatini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlar. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) MHTning eng asosiy ko'rsatkichi sifatida; yalpi milliy daromad tushunchasi (YaMD); yalpi ichki mahsulotni MHTda aniqlash usullari; nominal va real ko'rsatkichlar; narxlar tushunchasi, YaIM deflyatori, asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar; daromadlar va mahsulotlar ko'rsatkichlarini hisoblashdagi murakkabliklar; *O'zbekistonda MHTni joriy etish bilan bog'liq muammolar.*

Makroiqtisodiy muvozanat: Jami talab va jami taklif modellari.

Jami talab va uni belgilovchi omillar; jami talab egri chizig'i va uni siljituvchi omillar; jami taklif: uning omillari; jami taklif egri chizig'i va uning kesmalari; jami taklifning klassik va keysiancha modellari. makroiqtisodiy muvozanatlik: AD - AS modellarining ahamiyati; qisqa va uzoq muddatli muvozanat va ularning o'zaro bog'liqligi; *O'zbekistonda jami talab va jami taklifning muvozanatligini ta'minlash muammolari.*

## **Iste'mol va jamg'arish funksiyalari**

Ixtiyoridagi daromad va undan foydalanish; iste'mol va jamg'arish tushunchasi; iste'mol funksiyasi; iste'mol egri chizig'i; iste'molga bo'lgan o'rtacha va cheklangan moyillik; iste'mol nazariyalari: hayot davri (tsikl), ratsional kutishlar va permanent daromad (S.Kuznets.); jamg'arish funksiyasi va uning egri chizig'i; jamg'arishga bo'lgan o'rtacha va cheklangan moyillik; xususiy, davlat va xorijiy jamg'armalar; tejamkorlik "paradoksi" (aks oqibati).

Investitsiyalar va ularning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli.

Investitsiyalarning iqtisodiyotdagi roli; investitsiyalarning jamg'arish va iste'mol bilan o'zaro bog'liqligi; investitsiyalarga talab va unga ta'sir etuvchi omillar; investitsiyaga talab egri chizig'i; investitsion beqarorlik omillari; investitsiya "akseleratori", "avtonom" investitsiya va "indutsion" investitsiya funksiyalari; investitsiyalarga cheklangan moyillik; O'zbekistonda xususiy investitsiya fondlari; O'zbekistonda xorijiy investitsiya va va ularni jalb etishga yaratilayotgan shart - sharoitlar (qulayliklar); kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati; O'zbekistonda investitsiya siyosati.

### **Tovarlar va xizmatlar bozoridagi muvozanat. IS egri chizig'i**

Rejalashtirilgan va haqiqatdagi xarajatlar; "Keyns xochi" egri chizig'i va uning tenglamasi; tovar - moddiy zaxiralari; tovarlar ortiqchaligi; avtonom xarajatlar multiplikatori; davlat xarajatlari multiplikatori; soliq multiplikatori; "Keyns xochi" va uning AD - AS modeli bilan bog'liqligi; tovar va xizmatlar bozoridagi muvozanatlilik shartlari; davlatni byudjet va soliq siyosati. IS modeli; *tovarlar va xizmatlar bozoridagi muvozanatni ta'minlashda jamg'armalar va investitsiyalarning roli.*

### **Pul bozoridagi muvozanat. LM egri chizig'i**

Pul bozori tushunchasi; pul agregatlari; pulga talab va unga klassik va keynscha qarashlar; pul taklifi va uni aniqlash yo'llari; bank tizimi; pul multiplikatori; pul bozoridagi muvozanat; LM modeli va uni pul taklifiga ta'siri; davlatning pul kredit siyosati; *O'zbekistonning monetar siyosati.*

### **Tovar va pul bozoridagi makroiqtisodiy muvozanat. IS - LM modeli**

*AD - AS modelining IS - LM modeli bilan o'zaro bog'liqligi; tovar va xizmatlar va pul bozoridagi muvozanat shartlari; makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda IS - LM modelining ahamiyati va qo'llanilishi.*

### **Makroiqtisodiy beqarorlik va uning namoyon bo'lish shakllari**

*Iqtisodiy tsikl va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi; ishsizlik shakllari va ishsizlik darajasini o'lchash; potentsial YaIM; YaIMni uzilishi; Ouken qonuni; O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashda kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishning ahamiyati; inflyatsiya: darajasi, talab va taklif, inflyatsiyaning turlari, kelib chiqish sabablari va oqibatlar; xukumatning inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan chora - tadbirlari; inflyatsiya va ishsizlikning o'zaro bog'liqligi; Filips egri chizig'i.*

### **O'tish davrida davlatning makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati**

*Aralash iqtisodiy tizimda davlatning roli va tartibga solish usullari; barqarorlashtirish siyosatining mohiyati; barqarorlash - tirishni ta'minlashga nazariy yondashuvlar (strukturaviy va monetar yondashuv); vaqt oraliqlari; monopoliyaga qarshi siyosat; kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning shakl va usullari; O'zbekiston iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishining tahlili.*

### **Iqtisodiy o'sish modellari**

*Iqtisodiy o'sish va uning omillari, ekstensiv va intensiv o'sish; iqtisodiy o'sishning postkeynsian modellari: Domar modeli, Xorrod modeli, Kaldor modeli; iqtisodiy o'sishning neoklassik modeli (R.Solou); Texnika taraqqiyoti va muvozanatli o'sish; O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash muammolari; davlatning daromadlar siyosati.*

### **Ochiq iqtisodiyotda muvozanatlilik**

*“Ochiq” va “yopiq” iqtisodiyot tushunchasi; ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy o'zaro bog'liqliklar; xalqaro savdo; mamlakatning tashqi savdo balansi; valyuta kurslari; mamlakat to'lov balansi; valyuta kurslarining davlat byudjetiga, mamlakat to'lov balansiga ta'siri; ochiq iqtisodiyot muvozanati; O'zbekistonning valyuta siyosati.*

## **3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZULARINING RO'YXATI**

## **«Makroiqtisodiyot» tushunchasi**

Makroiqtisodiyotning fan sifatida shakllanishi; makroiqtisodiyot - sodiyot fanining predmeti va ob'ekti;\* makro va mikroiqqtisodiyot; makroiqtisodiyotni boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqasi; makroiqtisodiy modellar tushunchasi; makroiqtisodiyotda ekzogen va endogen o'zgaruvchilar; zaxiralar va oqimlar; makroiqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlarni jamlash (agregatlashtirish): uy xo'jaliklari sektori, tadbirkorlik sektori, davlat sektori, xorij sektori; makroiqtisodiy o'zaro bog'liqliklar; makroiqtisodiy nazariyalar va makroiqtisodiy siyosat. Iqtisodiy tizimlar va ularda resurslar, tovarlar va daromadlarning doiraviy aylanishi.

Milliy hisoblar tizimida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash.

Milliy hisobchilik tizimi (MHT); makroiqtisodiy ko'rsatkichlar; yalpi ichki mahsulot (YaIM); yalpi milliy daromad (YaMD); yalpi ichki mahsulotni MHTda o'lchash usullari;\* real va nominal YaIM; YaIM deflyatori, narxlar indeksi; asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar; O'zbekistonda MHTni joriy etish bosqichlari va xususiyatlari;

Makroiqtisodiy muvozanatlik holati: jami talab va jami taklif modellari.

Jami talab; jami talab egri chizig'i –AD; jami talabning narxlarga bog'liq bo'lmagan omillari; jami taklif va uning egri chizig'i –AS; jami taklifning klassik va keynscha modellari; makroiqtisodiy muvozanatlik - AD - AS modeli;\* qisqa muddatli muvozanatlik holatidan uzoq muddatli muvozanatlik holatiga o'tish; talab va taklif “shok”lari; davlatning barqarorlashtirish siyosati.

## **Iste'mol va jamg'arish funksiyalari**

Uy xo'jaliklarining ixtiyoridagi daromadlari va ularning iste'mol va jamg'arishga ta'siri;\* iste'mol funksiyasi; iste'molga bo'lgan o'rtacha va cheklangan moyillik; iste'mol nazariyalari; jamg'arish va uning turlari; jamg'arish funksiyasi; jamg'arishga bo'lgan o'rtacha va cheklangan moyillik; davlat byudjeti taqchilligi.

Investitsiyalar va ularni makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli.

Kapital va investitsiyalar; investitsiyaga talab va unga ta'sir etuvchi omillar;\* investitsiyalarga cheklangan moyillik; xususiyashtirish investitsiya fondlari; O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar.

## **Tovarlar va xizmatlar bozoridagi muvozanat IS egri chizig'i.**

Rejalashtirilgan va haqiqatdagi xarajatlar; tovar moddiy zaxiralarga investitsiyalar; “Keyns xochi”: avtonom xarajatlar multiplikatori; ishlab chiqarishning muvozanatlashgan hajmi; tovar va xizmatlar bozoridagi muvozanatlik shartlari;\* IS modeli;\* davlatning byudjet va soliq siyosati.



### **Pul bozoridagi muvozanat. LM modeli.**

Pul bozori; pul agregatlari; pulga talab; pul taklifi; pul bozoridagi muvozanat.\*  
LM modeli;\* bank tizimining pul bozoriga ta'siri; davlatning pul - kredit siyosati.

### **Tovar va pul bozoridagi makroiqtisodiy muvozanat. IS - LM modeli**

Tovarlar va pul bozoridagi makroiqtisodiy muvozanat; AD - AS va IS - LM modellarining o'zaro bog'liqligi; IS - LM modelining asosiy tenglamalari;\* byudjet - soliq va pul - kredit siyosatining nisbiy samaradorligi; byudjet - soliq ekspansiyasi; pul - kredit ekspansiyasi; narxlar darajasining o'zgarishida iqtisodiy siyosat.

### **Makroiqtisodiy beqarorlik va uning namoyon bo'lish shakllari**

Iqtisodiy davrlar; ishsizlik va ishsizlik darajasini o'lchash; ishsizlikning tabiiy darajasi; Ouken qonuni;\* inflyatsiya, uning sabablari va oqibatlari; inflyatsiyani jilovlashga qaratilgan chora - tadbirlar; inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik; Filips egri chizig'i.\*

### **O'tish davrida davlatning makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati**

Davlatning iqtisodiy roli; O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar va davlatning bosh islohotchilik roli;\* iqtisodiyotni tartibga solish usullari; davlatning barqarorlashtirish siyosati va uning mohiyati; barqarorlashtirishga monetar va strukturaviy yondashuv; vaqt oraliqlari; davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati; davlatning antimonopoliya siyosati; O'zbekistonda xususiy tadbirkorlikni qo'llab - quvvatlashga qaratilgan chora - tadbirlar.

### **Iqtisodiy o'sish modellari**

Iqtisodiy o'sish tushunchasi, iqtisodiy o'sish shakllari va omillari; iqtisodiy o'sishning oqibatlari; iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari; iqtisodiy o'sish modellari;\* O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash muammolari.

### **Ochiq iqtisodiyotda muvozanatlilik**

“Ochiq” va “yopiq” iqtisodiyot tushunchasi; ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy o'zaro bog'liqliklar; xalqaro savdo; valyuta kurslari; mamlakat to'lov balansining makroiqtisodiy ahamiyati;\* ochiq iqtisodiyot muvozanati.

## **4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA - NAMOIYISH MATERIALLARI RO'YXATI**

- Chizma: resurslar va daromadlar, xarajatlarning doiraviy aylanishi.

- Jadval: O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari.
- Jadval: Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar.
- Grafik: Iqtisodiy tsikllar.
- Grafik: Filips egri chizig'i.
- Grafik: AD - AS modeli.
- Jadval: Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari.
- Grafik: Davlat harajatlari va soliqlar multiplikatori. Keynes xochi.
- Grafik: Pul bozori modeli.
- Grafik: IS - LM modeli.
- Grafik: AD - AS va IS - LM modellarining o'zaro bog'liqligi.
- Grafik: R.Solou modeli.
- Grafik: Xarrod - Domar modeli.
- Grafik: Lorents egri chizig'i.
- Chizma: To'lov balansining umumlashtirilgan strukturasi.
- Jadval: Egiluvchan va qayd etilgan valyuta kurslari.

Case Studies: O'R makroiqtisodiy tahliliga doir o'quv misollari (rus tilida). Ochiq jamiyat instituti xomiyligida Iqtisodiy Markaz tomonidan tuzilgan.

Masofaviy o'qitish soatlari: WWW. google.ru.(Budapesht, Evropa Markziy Universiteti dasturlari); WWW. Yandex. ru.; WWW rumbler. ru.; WWW worldbank. org. ru. WWW.imf. org. .

Kompakt disk: Makrolinks: A program about the interrelations among macroeconomic accounts; Exchange Rate Analysis with a Case Study on Poland.

Statistika to'plamlari: 1. Sotsialno - ekonomicheskoe polojenie Respubliki Uzbekistan za 2000, 2001, 2002 g.

Kompyuter slaydlari: sovokupniy spros i predlojenie; inflyatsiya i bezrabortitsa.

Razdatochnie material: po Makroekonomike Venskoy shkoli Vsemirnogo Banka.

## **5. O'ZLASH TIRISHNING NAZORATI**

“Makroiqtisodiyot” fanidan talabalar bilimni nazorat qilish reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazorat shaklida amalga oshiriladi hamda ushbu fandan 1200 so'z hajmida mustaqil yozma ish yozish bilan tugallanadi. Talabalar bilimi reyting komissiyasi tomonidan baholanadi.

## **6. ADABIYOTLAR**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. - T.: O'zbekiston, 2002.
2. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun hammamiz mas'ulmiz. - T.: O'zbekiston, 2001.
3. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadlarimiz. - T.: O'zbekiston, 2000.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 2000.
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998.
6. Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish - ustuvor vazifa. Vazirlar Mahkamasi yig'ilishida so'zlagan nutqi. //Xalq so'zi, 15 fevral, 2002.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari. 1995 yil 5 yanvardan 2000 yil 1 yanvarigacha. - T.: Adolat, 2000.
8. M.Sharifxo'jaev. O'zbekiston: yangi g'oyalar, yangi yutuqlar. - T., 2002.
9. Hakimova M. Makroiqtisodiyot - T.: Mehnat, 1997.
10. Yo'ldoshev Z., Qosimov N. Makroiqtisodiyot asoslari - T.: Mehnat, 1994.
11. Makkonell K., Bryu S. Ekonomiks. T.1,2 - M., 1992.
12. Menkyu N, Gregori. Makroekonomika. - M., 1994.
13. Dornbush R, Fisher. S Makroekonomika - M.: 1997.
14. Samuelson A., Nordxaus D. Ekonomika. - M.: Laboratoriya bazovix znaniy, 2000.
15. Agapova T.A., Seregina S.F. Makroekonomika. - M.: Delo i servis, 2001.
16. Sharifxo'jaev M., Abdullaev q. Menejment. - T.: O'qituvchi, 2001.
17. G'ulomov S. va boshq. Mustaqil O'zbekiston 10 yil mustaqil taraqqiyot yo'lida. - T., 2001.
18. Makroiqtisodiyot. Ma'ruza matnlar. - T.: TMI, 2002.
19. Makroiqtisodiyot. Amaliy qo'llanma. - T., 2001.
20. Gosudarstvennoe regulirovanie rinochnoy ekonomiki. Ucheb. pos. M.: Delo, 2001.

### **Qo'shimcha adabiyot**

1. Makroiqtisodiy statistika. Akademik S.S.G'ulomov tahriri ostida. -T.: TDIU, 2000.
2. Makroekonomika. Ucheb. pos. N.I.Baziles, S.P.Gurko i dr. -MN.: BGEU, 1999.
3. Oreshin V.P. Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomiki. Ucheb. pos. - M.: Yurist, 1999.

4. Oreshin V.P. Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomiki (V voprosax i otvetax): Ucheb. pos. - M.: INFRA - M, 2000.
5. Antonov V.A. Mirovaya valyutnaya sistema i mejdunarodnie rascheti. - M.: TEIS, 2000.
6. Troyanovskiy V.M. Elementi matematicheskogo modelirovaniya v makroekonomike. - M.: RDL, 2001.
7. Vladimirova L.P. Prognozirovaniye i planirovaniye v usloviyax rinka: Ucheb. pos. 2 - e izd. Pererab. i dop. - M.: Dashkov i K, 2001.
8. Butmi G.V. Zolotaya valyuta: K ponimaniyu makroekonomiki gosudarstva i mira. -S - Pb.: Piter, 2000.
9. Uzbekistan: desyat let po puti formirovaniya rinochnoy ekonomiki. Pod red. A.X.Xikmatova. T.: O'zbekiston, 2001.
10. Slavin M.B. Sistemniy podoxod v makroekonomike. Ucheb. posobie dlya vuzov. M.: TEI, 2000.
11. Tarasevich L.S. i dr. Makroekonomika: Ucheb. pod obsh. red. L.S.Tarasevicha. Izd - 3 - e pererabotka i dopolnenie. Sost. Galperin V.M., Grebenikov P.I., Leusskiy A.I. -S - Pb.: SPbGUEF, 1999.
12. Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza: O'zbekiston 2000 -T.: O'zbekiston, 2001.
13. Doklad o chelovecheskom razvitii: O'zbekistan 2000 - T.: O'zbekistan, 2001.
14. Shestakov A.V. Tenevaya ekonomika: Ucheb. pos. -M.: Dashkov i K, 2000.
15. Salin V.N. i dr. Makroekonomicheskaya statistika: Ucheb. pos./ Pod red. Medvedeva V.G., Kudryashova S.I., Shpakovskaya E.P. -M.: Delo, 2001.
16. Akromov E.M., Ishmuxamedov A.T. Uzbekistan na puti k rinku. - T.: O'zbekiston, 1995.
17. Ivanov Yu.M. Sistema natsionalnix schetov - instrument makroekonomicheskogo analiza. - M.: 1996.
18. Karimov R.K, Karimova T.A. Milliy model muammolari - T.: O'zbekiston, 1993.
19. Nabiev X, Nabixo'jaev A, Maxmudov B. Milliy hisoblar tizimi - T., 1997.
20. Ishmuxamedov A. va boshq. Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi. - T.: O'qituvchi, 1996.
21. O'lmasov A, Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi - T.: Mehnat, 1995.
22. O'lmasov A. Oila iqtisodi - T.: O'qituvchi, 1998.
23. Ekonomika perexodnogo perioda. -M.: MGU, 1997.
24. Makroekonomicheskie problemi perexodnogo perioda v Uzbekistane. - T.: Mir ekonomiki i prava, 1998.
25. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. - T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 1998.

26. Tuxliev N., Taksanov A., Natsionalnaya ekonomicheskaya model Uzbekistana. - T.: O'qituvchi, 2000.
27. Raxmankulova T. Distantсионное обучение. - T., 2001.
28. N.Gregory Mankiw. Makroeconomics. Harvasol university. Worth publishers. 1992.
29. Principles of Makroeconomics. James R.Kearl. 1993 D.C. Heath and Company.
30. Makroeconomics. Second Edition. David. C.Colander. Middlebury College. IRWIN 1994 and 1995.
31. Makroeconomics David N. Human. Third Edition North Carolina state University IRWIN 1989, 1992, 1994.
32. «Mikroeconomics» By David N. Hyman Fourth Edition. 1989 - 1992, 1994,1997.
33. «Mikroeconomics» By David . C.Colander. second edition Richard D. Irwin, inc. 1994 and 1995.
34. «Mikroeconomics» By Don Cole Third edition. Dushkin Publishing Group, 1996.
35. World development Indicators, 2001.
36. Uzbekistan: obshchaya otsenka strani. OON, 2001.